



**«TASDIQLAYMAN»
“Biznesni rivojlantirish banki” ATB
Boshqaruv raisi o'rinbosari v.b.:
O.Voxidov**

**«8» yanvar 2026 y.
№ 3**

**Bank brendini targ'ibot etish xizmatlari bo'yicha
TEXNIK TOPSHIRIQ**

T/r	Talablar ro'yxati	Talablar mazmuni
1.	Buyurtmachi	“Biznesni Rivojlantirish Banki” ATB
2.	Bajariladigan ish yoki ko'rsatiladigan xizmat turi	BRB brendini targ'ibot etish bo'yicha eksklyuziv xizmatlarni tashkil etish va kontent yaratishda ishtirok etish
3.	Buyurtmachi manzili	Toshkent shahar, Alisher Navoiy ko'chasi 18A-uy, 100011
4.	Xarid predmeti batafsil tarkibi	Taniqli 3 ta sportchilar 2026 yil davomida bankning brend ambassadorlari bo'lishi lozim. Brend ambassadorlarning nomidan va uning shaxsidan bank mahsulotlarini targ'ibot etishda foydalaniladi. 2026 yil davomida Brend ambassadorlarni 3 marta foto va 3 marta video mahsulotlar tayyorlashda bosh rollarda ishtirok etishlari lozim. Rasmga olingan foto va video materiallar bank xizmatlarini istalgan kanallarda (vositalarda) targ'ibot qilish uchun foydalaniladi. Brend ambassador etib futbol bo'yicha O'zbekiston terma jamoasining quyudagi o'yinchilari jalb etilishi lozim: Jaloliddin Masharipov, O'tkir Yusupov, Oston Urinov. Brend ambassadorlari ijtimoiy tarmoqlarda (Instagram) o'z sahifasiga ega bo'lishi va bankning so'roviga asosan sur'atga olingan video materiallarni o'z sahifalarida joylashtirishi lozim. Yetkazib beruvchi sportchilar bilan texnik topshiriqnomada ko'rsatilgan shartlar asosida shartnoma tuzishi lozim. Brend ambassadorlarga boshqa bank, moliya, onlayn do'kon, fintech tashkilotlar va xizmatlarni targ'ibotlarida ishtirok etishi va hamkorlik qilish ta'qiqlanadi. Brend-ambassadorlar Bankni onlayn va oflayn ommaviy maydonda Bank tomonidan tasdiqlangan kommunikatsiya pozitsiyasi va ko'rsatmalariga qat'iy rioya qilgan holda vakillik qiladi. Faqat Bank tomonidan tasdiqlangan matnlar, vizual materiallar va xeshteglardan foydalaniladi. Ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda reklama tusidagi intervyu va sharhlarni Bank bilan kelishilgan holda beriladi.
5.	To'lovlarni amalga oshirish	Ijrochiga shartnoma tuzilgan kundan boshlab 5 bank ish kuni ichida 30% miqdorda oldindan to'lov o'tkazib beriladi. To'lovning qolgan qismi bajarilgan ish hajmiga mos ravishda, topshirish-qabul qilish dalolatnomalari qabul qilingandan so'ng 5 bank ish kuni ichida o'tkazib boriladi.
6.	Shartnomaning amal qilish muddati	Shartnoma imzolangan kundan boshlab 12 oy.

7.	Bajarilgan ish va xizmatlarni qabul qilish	Ijrochi tomonidan bajarilgan ish va xizmatlar topshirish-qabul qilish dalolatnomalari taqdim etilib, ikki tomonlama imzolangan paytdan bajarilgan hisoblanadi.
8.	Ishtirokchilarning tashkilotchi bilan bogʻlanish uchun aloqa telefonlari	(78) 150-93-39 (ichki 572) X. Mirzajonov

kelishuvchilar: S.Niyazov

<https://hujjat.brb.uz/?pin=pT72qW53&id=19b7d70d-a97d-4863-a97b-24f6e54f005b>